

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA

MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

«IQTISODIYOT NAZARIYASI» KAFEDRASI

«Iqtisodiyot nazariyasi» fanidan kurs ishini bajarish bo‘yicha

U S L U B I Y Q O ‘ L L A N M A

(bakalavriat talabalari uchun)

TOSHKENT-2019

Mamadiyorov O., Abduxalilova S. Iqtisodiyot nazariyasi fanidan kurs ishlarini bajarish yuzasidan uslubiy ko‘rsatma. (Oliy ta’limning bakalavriat yo‘nalishi 1-kurs talabalari uchun) –T.: IQTISOD-MOLIYA, 2019 -33 bet.

Taqrizchilar:

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasi mudiri, dotsent, i.f.n. B.Xadjiyev

Toshkent moliya instituti
“Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasi dotsenti, i.f.n. D.Bababekova

Mazkur uslubiy ko‘rsatmalar O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari asosida Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan “Iqtisodiyot nazariyasi” fani o‘quv dasturi asosida yozilgan.

Ushbu uslubiy ko‘rsatmalarda keltirilgan kurs ishi mavzulari O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning dolzarb muammolari, iqtisodiyot va uning tarkibiga kiruvchi tuzilmalar taraqqiyotining xususiyatlari hisobga olingan holda mamlakat va hududlarning istiqboldagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan bog‘liq muammolarga bag‘ishlangan.

Uslubiy ko‘rsatmalar “Iqtisodiyot nazariyasi” fani bo‘yicha kurs ishi mavzulari namunalarini, talabalar uchun kurs ishini bajarishga oid tavsiyalarni, kurs ishini himoya etish tartibi, kurs ishiga rahbarlik qilish va uni baholash yuzasidan vazifalarni hamda tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxatini o‘z ichiga olgan.

KIRISH

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari o'quv jarayonining zarur elementi – ushbu yo'nalishlar o'quv rejasida ko'zda tutilgan asosiy fanlardan kurs ishlarini bajarish hisoblanadi va talabalarda ilmiy izlanishlar olib borish ko'nikmalarini tarbiyalash, tanlangan mavzuni mustaqil ravishda chuqur o'rganish, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash, ilmiy, nazariy va amaliy xulosalarni shakllantirish va pirovardida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Mazkur qo'llanma Oliy ta'limning bakalavriat yo'nalishiga mo'ljallangan o'quv rejaga mos holda, 1-kurs bakalavriat asosiy fanlaridan “Iqtisodiyot nazariyasi” fanidan kurs ishlarini bajarish bo'yicha tavsiyalar va tartib-qoidalarni o'z ichiga oladi.

Kurs ishini bajarishdan maqsad - kurs ishi ustida ishlash davomida talaba “Iqtisodiyot nazariyasi” fandan olgan nazariy bilimlarini mustaqil ravishda kengaytirish va chuqurlashtirishga erishadi, maxsus adabiyotlardan olingan, iqtisodiyot, moliya, bank, soliq va agrar sohadagi ma'lumotlar, hisobotlari materiallarini hamda ilmiy tezis va maqolalarni o'rganish asosida to'plangan, shuningdek, Internet resurs manbalaridan olingan ma'lumotlarni qayta ishlash, umumlashtirish, tahlil qilish va muayyan bir tizimga keltirish bo'yicha dastlabki bilim va ko'nikmalarni hosil qiladi.

Qo'yilgan maqsadning muvaffaqiyatli bajarilishi uchun kurs ishlarini bajarishga quyidagi talablar qo'yiladi:

- kurs ishida mavzuga taalluqli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, ma'ruzalari va Prezident asarlaridan ma'lumotlar, Oliy Majlis sessiyalari materiallari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari sharhi o'z aksini topishi lozim;

- kurs ishini yozish jarayonida tadqiq etilayotgan mavzu va o'rganilayotgan amaliy ma'lumotlarning nazariy asoslarini chuqur o'rganish va mavzu bo'yicha samaradorligini oshirish imkoniyatlarini ko'rsatish, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va yangilashning bugungi sharoitida iqtisodiyotni rivojlantirishning turli dastak va vositalaridan foydalanish shakllari va usullarini takomillashtirish nuqtai nazardan ilmiy, ijodiy yondoshish zarur;

- kurs ishi mazmunini ravon adabiy tilda bayon qilish, tadqiqotlar va izlanishlar natijalarini rasmiy hujjatlarga qo'yiladigan asosiy talablarga rioya qilgan holda aks ettirish lozim.

UMUMIY QOIDALAR

Kurs ishi ustida ishlash davomida talaba o'quv jarayonida olgan nazariy bilimlari va mustaqil tadqiqot natijalarini yozma ravishda bayon qilish uslubi, keltirilgan fikrlarning aniqligi, materiallarning joylashish ketma-ketligi, rasmiylashtirishga qo'yiladigan umumqabul qilingan talablarni hisobga olgan

holda bayon qilish tajribasiga ega bo'lishi juda muhimdir. Bo'lajak iqtisodchi-mutaxassis o'z fikrlarini aniq va ravon bayon qila olishi, kiritayotgan takliflarini ilmiy va nazariy jihatdan asoslay bilishi, iqtisodiy terminlarni o'z o'rnida to'g'ri ishlata bilishi, kerakli ma'lumotlarni to'play olishi va qayta ishlay olishi, ularni atroflicha tahlil qilish va umumlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Kurs ishi talaba tomonidan mustaqil ravishda bajariladi va ma'lum ma'noda, ilmiy izlanish olib borishning kichik bir shaklidir. Ayrim iqtidorli talabalar kurs ishini bajarish jarayonida birmuncha chuqur va keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib boradilar, ularning mustaqil ravishda bajargan kurs ishlari talabalar ilmiy to'garaklarida, ilmiy konferentsiyalarda va tanlovlarda ilmiy ma'ruza qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Kurs ishida tavsiya etilgan adabiyotlarni, ayniqsa, iqtisodiy ta'limotlar klassiklari asarlarini, prezident asarlari, iqtisodiy ta'limotning ko'zga ko'ringan horijiy va milliy namoyandalarining asarlari va ma'ruzalarini chuqur o'rganish natajalari (tegishli havolalarda) aks ettirilsagina, mazkur kurs ishi unga qo'ytiladigan zamonaviy talablarga javob bera oladi. Shuningdek, ishda nafaqat mamlakat ichki institutsional tuzilmalarining, balki tashqi kuzatuvchilar, BMT, Xalqaro Valyuta Fondi, Jahon Banki kabi xalqaro moliyaviy tashkilotlarning, xalqaro va umummilliy tashkilotlarning tegishli ma'lumotlarini keltirish, ularni tahlil qilish natijalarini aks ettirish yuqori baholanadi.

Kurs ishlarini bajarish va himoya qilish jarayoni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- kafedra tomonidan tavsiya etilgan kurs ishi mavzulari ro'yxatidan mavzuni tanlash;
- tanlangan mavzu bo'yicha adabiyotlar bilan dastlabki tanishish;
- kurs ishi rejasini tuzish;
- adabiyotlarni o'rganish va amaliy ma'lumotlarni to'plash;
- kurs ishini yozish va rasmiylashtirish;
- kurs ishini himoya qilish.

I. MAVZUNI TANLASH

Talabalarga tavsiya etiladigan kurs ishlari mavzulari "Iqtisodiyot nazariyasi" fani dasturiga muvofiq tarzda kafedra tomonidan ishlab chiqildi va kafedra yig'ilishida ko'rib chiqilib, yig'ilish bayonnomasi bilan tasdiqlandi. Talabaga kafedra tomonidan tavsiya etilgan mavzular tarkibidan o'z familyasining bosh harfiga mos harf qatoridan istalgan mavzuni tanlab olish huquqi beriladi. Ayrim hollarda talaba, kurs ishiga rahbar etib tayinlangan professor-o'qituvchi va kafedra mudiri bilan kelishilgan holda, kurs ishi mavzulari ro'yxatiga kirmagan mavzuni tanlashi (agar bunga asos bo'lsa) mumkin.

Odatda, kurs ishlari mavzulari ro'yxatidagi mavzular soni akademik guruhdagi kurs ishini bajaradigan talabalar sonidan 2 barobar ortiq bo'ladi. Shu sababli bir akademik guruhdan bir necha talaba bitta mavzuni tanlamagani

maqsadga muvofiq. (kurs ishlarining namunaviy mavzulari ushbu Ko'rsatmaning 1-ilovasida keltirilgan).

Kurs ishi mavzusini to'g'ri tanlash muhim ahamiyatga ega, u yoki bu mavzuni tanlab olish tasodifiy bo'lmasligi lozim. Ayrim talabalar mavzu tanlashdek muhim bosqichga jiddiy yondoshmaydilar, natijada tasodifiy biror mavzuni olib, bir qancha vaqt o'tgach, qator qiyinchiliklarga uchrab, qimmatli vaqtlarini behuda sarflab, so'ng kafedraga mavzuni o'zgartirishni so'rab murojaat qiladilar. Shuningdek, ba'zi talabalar duch kelgan mavzuni tanlab, mavzu ustida yuzaki, hech bir tashabbus va izlanishsiz ishlaydilar. Bunday sovuqqonlik va loqaydlikdan, e'tiborsizlik va sustkashlikdan umumiy ish faqat zarar ko'radi, kurs ishini bajarishdan ko'zlangan maqsadga erishilmaydi.

Mavzuni tanlashga har bir talaba u yoki bu mavzuga ilmiy va amaliy qiziqishlarini, ilmiy to'garaklardagi avvalgi ishtirokini hisobga olib, maxsus adabiyotlar bilan tanishuvi yoki oliy ta'lim muassasasigacha orttirgan ish tajribasiga tayangan holda yondoshgani ma'qul.

Bundan tashqari, kurs ishi mavzusini talaba kelgusida yozajak bitiruv-malakaviy ishining mavzusi va yo'nalishini hisobga olgan holda tanlagani maqsadga muvofiq, chunki kurs ishi, ma'lum ma'noda, malakaviy ishda ko'tariladigan masala va muammolarning nazariy asosini tashkil qiladi.

Innovatsion rivojlanish talablaridan kelib chiqqan holda talaba, kurs ishiga rahbar etib tayinlangan professor-o'qituvchi ilmiy rahbarligida o'zi tanlagan dolzarb mavzuda ilmiy maqola tayyorlashi va kurs ishi himoya muddatigacha respublikamizdagi va dunyodagi nufuzli, impakt faktori yuqori bo'lgan yoki OAK tomonidan ilmiy maqolalar nashr qilish taklif etilayotgan jurnallar ro'yxatiga kiritilgan jurnallarda maqola chop etilgan bo'lsa kurs ishi himoyasida ijobiy baholanadi. Ilmiy maqola yozishga qo'yilgan talablar va maqola na'munasi (2, 8-ilovalarda keltirilgan).

Xulosa qilib aytganda, kurs ishining mavzusini tanlashda qanday omil asos bo'lishidan qat'i nazar, bu tasodifiy emas, asoslangan va to'g'ri qabul qilingan qaror bo'lishi kerak. Talaba o'z ilmiy rahbariga nafaqat o'zi tanlagan kurs ishining mavzusini, balki aynan shu mavzuni tanlash sababini ham etkazishi tavsiya etiladi.

Talabaga eslatma!
To'g'ri tanlangan mavzu –
kurs ishining muvaffaqiyatli
himoyasiga tashlangan birinchi
omadli qadamdir

Kurs ishi mavzusini tanlashda kafedra pedagog-xodimlarining yordami katta ahamiyatga ega. Mazkur fandan amaliy mashg'ulotlar olib boruvchi kafedra o'qituvchilari bu ishda talabalarga yaqindan yordam beradilar. Bu maqsadda pedagog-xodimlarning yakka tartibda va guruh bo'yicha maslahat soatlari uyushtirishi maqsadga muvofiq. Unda o'qituvchi talabalarni dolzarb mavzular bilan yaqindan tanishtiradi, ayrim mavzularning dolzarbligi va mazmuni haqida axborot beradi, shuningdek, talabalarni tavsiya etilayotgan mavzularning muammoli jihatlarini yoritishga yo'naltiradi, talabalarga jiddiy va har tomonlama o'ylab mavzu tanlash maqsadida tegishli adabiyotlarning tegishli boblari bilan tanishib chiqish, me'yoriy-huquqiy manbalarni o'rganish, amaliyotdagi mavjud holatni tahlil qilish kabi

tavsiyalarni beradi.

II. TANLANGAN MAVZU BO‘YICHA ADABIYOTLAR BILAN DASTLABKI TANISHISH

Tanlangan mavzu bo‘yicha adabiyotlar bilan dastlabki tanishish bosqichi, avvalo, kurs ishining rejasini tuzish va yoritilajak savollarning qamrovini belgilab olish uchun muhimdir. Kurs ishi rejasini uning yo‘nalishi va maqsadlarini aks ettirishi kerak. Shu sababli talaba rejani tuzishdan avval kurs ishining muhim savollarini belgilab olish maqsadida asosiy adabiyotlar, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, vaqtli matbuotda chop etilgan maqolalar, amaliyotda qo‘llanilayotgan me‘yoriy hujjatlar bilan tanishib chiqib, mavzuning ham nazariy, ham amaliy tomonlarini aniqlab oladi.

Adabiyot bilan ishlash - talabaning mustaqil faoliyati bo‘lib, bu faoliyat kutubxonalar va axborot-resurs markazlarining (ARM) kartotekalari va bibliografik ma‘lumotnomalarini o‘rganishdan boshlanadi. Bu borada ARMda mavjud adabiyotlarni bilimlarning ma‘lum tarmoqlari va sohalari bo‘yicha guruhlovchi predmet-alfavit katalogi, elektron darsliklar bo‘yicha ma‘lumotlar bazasi, Internet resurs manbalaridan olingan ma‘lumotlar yaqindan yordam berishi mumkin. Bundan tashqari, ARMLarda fanning yo‘nalishiga oid bo‘lgan ko‘plab maxsus jurnallar, xalqaro hamda respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarning maqola va tezislari to‘plami, fanlardan o‘quv-uslubiy majmualar va ma‘ruza matnlari mavjud. Ular bilan yaqindan tanishish ham rejani tuzishda amaliy yordam berishi mumkin.

Talabaga tavsiya!
Hech qaysi adabiyotda tayyor kurs ishi bo‘lmaydi!
Kurs ishi talabaning mustaqil izlanishlari mahsuli bo‘lishi kerak

Adabiyot bilan ishlashda darsliklar, o‘quv qo‘llanmalarining chop etilgan vaqtiga alohida ahamiyat berish zarur. Chunki ularda bayon etilgan ayrim masalalar, keltirilgan amaliy ma‘lumotlar, amaliyot bilan bog‘liq u yoki bu ko‘rsatmalarga asos

bo‘lgan me‘yoriy materiallar eskirgan bo‘lishi mumkin. Shu sababli adabiyotlarni to‘plashda eng yangi nashrlardan (oxirgi 3-5 yillar ichida nashr etilgan) foydalanish, mustaqil izlanishlar asosida tuzilgan adabiyotlar ro‘yxatini esa kurs ishi rahbari bilan birgalikda ko‘rib chiqish va, zarur bo‘lsa, rahbarning tavsiyasi bilan to‘ldirish lozim.

Talabalarga yaqindan yordam berish maqsadida mazkur uslubiy qo‘llanmaga kurs ishini bajarish bo‘yicha asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar ro‘yxati ilova qilingan (3-ilovaga qarang).

III. KURS ISHI REJASINI TUZISH

Kurs ishi rejasini talaba asosiy adabiyotlar bilan tanishib chiqqandan so‘ng tuzishi maqsadga muvofiq. Reja mavzuning asosiy savollarini aks ettirib, qisqa bo‘lishi (oddiy reja) yoki har bir savolni aniqlashtirgan, kichik savollarga ajratgan holda, kengaytirilgan (murakkab reja) bo‘lishi mumkin.

Reja ilmiy rahbar bilan kelishgan holda tuzilishi kerak. Rejaning savollari ma'lum bir tartibda, mantiqiy ketma-ketlikda qo'yilishi lozim. Rejada talabanning ijodiy yondoshuvini, ilmiy tahlillari va tashabbusini talab qiladigan savollarning qo'yilishi juda muhim bo'lib, bu kurs ishining qiymatini yanada oshiradi.

Kurs ishi ustida ishlash jarayonida reja talaba tomonidan birmuncha o'zgartirilishi, aniqlashtirilishi va kengaytirilishi mumkin.

Talabaga tavsiya!

**Kurs ishi rejasini tuzishni yuqori kursda o'qiydigan do'stingizga yoki partadosh talaba-qizga ishonmang!
"Tanasi boshqa – dard bilmas!"**

Kurs ishi rejasini tuzishda biron-bir qolipning, yagona shaklning bo'lishi mumkin emas. Lekin aksariyat mavzular uchun tuzilgan rejalar savollari o'rganilayotgan mavzuning nazariy va

tashkiliy-huquqiy asoslarini, izlanish ob'ektidagi amaliyot holati tahlilini, izlanish uchun asos qilib tanlangan muayyan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish yo'llarini qamrab olishi kerak.

Kurs ishining mazmuni va hajmiga ma'lum chegaralar qo'yilgan, ya'ni kurs ishi 3 – 3,5 ming so'z birligi, yoki 35-40 varaq hajmida bajarilishi kerak, shunday ekan, rejada ham shu hajm doirasida yoritib berish mumkin bo'lgan savollar qo'yilishi maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, talabanning qiziqishlaridan, fikrlash doirasining kengligidan, to'plangan adabiyotlar va amaliy ma'lumotlarning ko'lamidan, talabanning ilmiy izlanishlarga bo'lgan layoqatidan kelib chiqqan holda, kurs ishi rejaları turli-tuman, cheklanmagan variantlarda, ixtiyoriy talqinda bo'lishi mumkin. Muhimi, ishlab chiqilgan reja tanlangan kurs ishining mazmun-mohiyatini, maqsad va vazifalarini ochib berishi, o'rganilgan muammo yuzasidan mustaqil xulosalarni shakllantirishga xizmat qilishi kerak. Ushbu Ko'rsatmalardan foydalanuvchilarga amaliy yordam sifatida bir necha mavzu bo'yicha tuzilgan kurs ishi rejaları namunalari qo'llanmaning 4-ilovada keltirilgan.

IV. ADABIYOTLARNI O'RGANISH VA AMALIY MA'LUMOTLARNI TO'PLASH

Reja tuzilgach va rahbar bilan tuzilgan reja xususida kelishib olingach, to'plangan adabiyotlarni yaqindan o'rganish va asosiy nazariy xulosalarni konspektlashtirishga kirishish mumkin. Bu bosqichda talaba adabiyotlardan tegishli mavzularni chuqur va har tomonlama o'rganishi va shu tariqa to'plagan bilimlarini rejaga asoslangan holda guruhlab olishi lozim. Talaba adabiyotning u yoki bu bo'limini o'rganib chiqib, to'plangan ma'lumotlarni kurs ishining qaysi bobida aks ettirishni o'ylab ko'rish kerak. Bu ishni avval kurs ishi bo'yicha tavsiya etilgan darsliklar va o'quv qo'llanmalarni o'rganishdan boshlash maqsadga muvofiq, so'ng ilmiy tadqiqot ishlari va amaliy qo'llanmalarni o'rganib chiqish mumkin. Bundan tashqari, o'rganilayotgan mavzuga taalluqli bo'lgan O'zbekiston Respublikasi qonunlari,

Prezident qarorlari, farmonlari, farmoishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Kodekslar, amaliyotda qo'llanilayotgan yo'riqnomalar va me'yoriy hujjatlarni o'rganib chiqish va kurs ishining u yoki bu savolini yoritishda ulardan foydalanish kurs ishini yozishga qo'yiladigan asosiy talablardan hisoblanadi. Shu bilan birga, Prezident asarlari, ma'ruzalari va nutqlaridan foydalanish, ularda belgilab berilgan vazifalarning bajarilish darajasini mavzuga bog'lab o'rganish va kurs ishida maqsadga muvofiq aks ettirish tavsiya etiladi.

Talabaga ogohlantirish!
Kurs ishi yozishni
Internetdan tayyorini
qidirishdan boshlamang! Bu
masalaning zo'r yechimi
emas!

Kurs ishida bahs-munozarali, muammoli masalalarga alohida o'rin ajratish kerak. Bu boradagi vazifa shundan iboratki, turli mualliflarning u yoki bu iqtisodiy kategoriya yoki iqtisodiy voqelik xususidagi qarashlarini, ularning qay tarzda asoslanayotganligini o'ylab ko'rib, ishda

to'g'ri aks ettirib, talaba bu boradagi o'z nuqtai-nazarini bayon qilishi va asoslab berishi ayniqsa muhimdir. Bu maqsadlarda vaqtli matbuotda chop etilgan maqolalarni, ilmiy anjumanlarning materiallarini, shuningdek, iqtisodchi olimlarning mavzuga taalluqli ilmiy monografiyalarini o'rganib chiqish lozim.

Bajarilgan kurs ishi, agar unda tegishli amaliy, raqamli ma'lumotlar keltirilmasa va ularning tegishli tartibdagi tahlili berilmasa, bunday ishlar ijobiy baholanmaydi, chunki, iqtisodiy jarayonlarning o'zgarish qonuniyatlarini, o'sish yoki sustlashish tendentsiyalarini, muayyan ko'rsatkichlarning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni faqat raqamlar orqali, ularni solishtirish, baholash, monitoring va tahlil qilish orqali ko'rsatish mumkin. Bu maqsadda statistik to'plamlar, iqtisodiy jurnallardagi iqtisodiy jarayonlarning yillar va choraklar bo'yicha o'zgarishini aks ettiruvchi statistik ko'rsatkichlardan, davlat organlarining (masalan, Davlat statistika qo'mitasi, Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasi, kabi) rasmiy Internet-saytlaridagi ma'lumotlaridan foydalanish va ularni jadvallar, diagrammalar, grafiklar, chizmalar tarzida jamlab, kurs ishida aks ettirish lozim. Shuningdek, mavzuga mos ravishda alohida olingan moliya va soliq organlari, davlat boshqaruvi idoralari va budjet tashkilotlari va muassasalarining hisobot ma'lumotlaridan foydalanib, o'rganilayotgan mavzuning mohiyatini, uning samaradorlik darajasini ochib berish mumkin. Bu ma'lumotlarni so'nggi 3-5 yil bo'yicha keltirish maqsadga muvofiq. Agar tanlangan mavzu nazariy xususiyatga ega bo'lsa, keltirilgan raqamli ma'lumotlar nazariy xulosalarning ishonarli ko'rgazmasi va isboti bo'lib xizmat qilishi shubhasiz.

V. KURS ISHINI YOZISH VA RASMIYLASHTIRISH

Kurs ishini yozish. Kurs ishi odatda, kirish qismi, 4-5 ta savol va xulosa qismlaridan iborat bo‘ladi. Kirish qismida mavzuning dolzarbligi,

Talaba diqqatiga!
“Agar ilm o‘z-o‘zidan hech qanday amaliy foyda keltirmaganda ham, uni befoyda deb bo‘lmaydi, jilla qursa u aqlni ishlatib, miyada tartib o‘rnatadi” (Frensis Bekon)

maqsadi va vazifalari, kurs ishini yozishga asos bo‘lgan amaliy ma’lumotlarning axborot manbalari, izlanishning ob’ekti, predmeti va amaliy ahamiyati aks ettiriladi.

Mavzuning dolzarbligini yoritish, barcha ilmiy ishlar kabi, kurs ishi uchun ham majburiy talabdir. Talaba mavzuni tanlagan ekan, uning ilmiy salohiyati va nazariy jihatdan tayyorgarligi, albatta, bu mavzuning mazmunini tushunib yetishi va uni zamon talabiga mosligi hamda ijtimoiy muhimligini baholay olishi uchun etarli bo‘lishi kerak. Mavzuning dolzarbligini yoritishda quruq, asossiz gaplarga o‘rin bermaslik, gapni uzoqdan boshlab, mavzuning mohiyatiga etib kelganda, xalq so‘zi bilan aytganda “aravani quruq obqochish”larga yo‘l qo‘ymaslik lozim.

Mavzuning dolzarbligini asoslashda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlaridan, ma’ruzalaridan, shuningdek, xorijiy va milliy iqtisodchi-olimlar asarlaridan mavzuga taalluqli bo‘lgan fikrlarni keltirish ayniqsa muhim.

Ishning kirish qismida kurs ishi mavzusining maqsadi o‘zining aniq ifodasini topishi, ushbu maqsadga erishish yo‘lida qo‘yilgan vazifalar aniq ko‘rsatilishi kerak, chunki, kurs ishini baholashda qo‘yilgan maqsadga erishilganlik va belgilangan vazifalarning bajarilganlik darajasiga baho beriladi. Kurs ishining kirish qismini ko‘pi bilan 2-3 varaq hajmda yozish tavsiya etiladi.

Birinchi savol odatda o‘rganilayotgan soha yoki iqtisodiy kategoriyaning nazariy jihatlarini ochib berishga bag‘ishlanadi. Unda u yoki bu iqtisodiy kategoriyaning iqtisodiy mazmuni, uning iqtisodiyotda va ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni, bozor iqtisodiyoti sharoitida jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati ko‘rsatib beriladi. Biron bir iqtisodiy kategoriyaning mohiyatini ochib berish - bu mazkur kategoriyaning mohiyati va zarurligi nimada, zamonaviy bozor iqtisodiyotida u qanday o‘rin egallaydi, uning rivojlanishining ob’ektiv omillari nimalardan iborat, qanday iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarni aks ettiradi, ahamiyati nimalarda namoyon bo‘ladi? - degan savollarga javob berishdir. U yoki bu iqtisodiy kategoriyaning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyatini aniq raqamli ma’lumotlar asosida ochib berish mumkin.

Ma’lumotlar dunyo bo‘yicha, mamlakat bo‘yicha yoki mavzu oldiga qo‘yilgan vazifalardan kelib chiqqan holda, hududlar (viloyat, shahar, tuman) bo‘yicha keltirilishi va bir necha yil ko‘rsatkichlarini solishtirish asosida tahlil natijalari aks ettirilishi kerak.

Ikkinchi savol odatda amaliy faoliyat bilan bog‘liq bo‘ladi. Unda u yoki bu iqtisodiy kategoriyaning amal qilish mexanizmi, uning dastak va vositalaridan amaliyotda foydalanish holatlari aks ettiriladi.

Asosiy qism mazmunini yoritishda amaliyot ma'lumotlarini jadvallar, diagrammalar, rasmlar shaklida ifodalash, ularni batafsil tahlil etish talab etiladi. Tahlil jarayonida davriy nashrlarda chop etilgan ilmiy maqolalarga, hukumat idoralarining rasmiy Internet saytlarida keltirilgan ma'lumotlarga asoslanish tavsiya etiladi.

Kurs ishining so'nggi savollari, odatda o'rganilgan kategoriyaning amal qilishini, u yoki bu iqtisodiy munosabatlarini zamonaviy bozor iqtisodiyoti talablaridan, sohada olib borilayotgan islohotlar talablaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish, rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan bo'ladi. Bunda talaba, izlanishlar natijasida olgan bilimlari, kuzatishlari, tahlillari asosida o'rganilgan soha yohud ob'ektning faoliyatini yaxshilash, samarasini yanada oshirish bo'yicha o'zining yoki shu sohada izlanishlar olib borgan iqtisodchi-olimlar va amaliyotchilarning taklif va mulohazalarini ilmiy tarzda bayon qilishi, ularni har tomonlama asoslab berishi, xulosalarini bir tizimga solib keltirishi lozim.

Shuningdek, kurs ishi asosiy qismining tegishli reja savollarida o'rganilayotgan sohaga taalluqli bo'lgan ilg'or xorijiy tajribalarni bayon etish va ularni mamlakatimizda qo'llash imkoniyatlari bo'yicha takliflar kiritish kurs ishining nazariy va amaliy ahamiyatini yanada oshiradi va uni yuqori darajada baholash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Kurs ishining xulosa qismida olib borilgan izlanishlar asosida shakllangan xulosalar va taklif-mulohazalar tizimli ravishda keltiriladi. Ishning xulosa qismida bayon etilgan fikrlar o'rganilgan muammolarning yechimini yoritib berishi, o'rganilgan soha yoki iqtisodiy voqelikning mavjud holatini yaxshilash va amaldagi mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan va berilgan takliflarning aniq, lo'nda va qisqa mazmunini aks ettirishi, ishni yakunlangan ilmiy ish sifatida tan olish uchun asos bo'lib xizmat qilishi lozim.

Kurs ishining so'nggida foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati keltiriladi. Shuni alohida ta'kidlash muhimki, muallif tomonidan keltirilgan adabiyotlar ro'yxati uning kurs ishini yozishda oxirgi 3-5 yil ichida chop etilgan maxsus adabiyotlardan (klassik ta'limotlar namoyandalarining asarlari bundan mustasno) foydalanish tavsiyasiga rioya qilganligini ko'rsatib turishi kerak.

Adabiyotlar ro'yxatini quyidagi tartibda rasmiylashtirish qabul qilingan¹:

- I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari va kodekslar.
 - II. O'zbekiston Respublikasi Prezident qarorlari va farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari.
 - III. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari.
 - IV. Asosiy adabiyotlar.
 - V. Qo'shimcha adabiyotlar.
 - VI. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar.
 - VII. Internet saytlari.
- Foydalanilgan har bir manbaning muallifi, to'liq nomi, nashr etilgan joyi va

¹ Magistratura to'g'risidagi nizom. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2012-yil 29-oktyabrdagi 418-son buyrug'i bilan tasdiqlangan. 5-ilova.

vaqti (qaysi tilda nashr etilgan bo'lsa, shu tilda), hajmi hamda beti ko'rsatiladi. Agar kurs ishi lotin alifbosiga asoslangan o'zbek tilida yozilgan bo'lsa, foydalanilgan rus tilidagi adabiyotlarni shu tilda kirill alifbosida keltirish to'g'ri bo'ladi.

Kurs ishini rasmiylashtirish. Kurs ishini ilmiy rahbar tomonidan belgilab berilgan grafik asosida talaba shaxsan bajaradi. Talaba tanlangan mavzu yuzasidan qabul qilingan qarorning to'g'riligiga, uning topshiriqqa muvofiqligiga, kurs ishini bajarishda ko'chirmachilik holatining yo'qligiga javob beradi.

Kurs ishi Davlat Ta'lim Standartlarida talab etilganidek, talaba tomonidan tartibli rasmiylashtirilgan, xatosiz, aniq va tushunarli tilda, qisqartirishlarsiz (umumqabul qilinganlardan tashqari) yozilgan bo'lishi kerak. Kurs ishi matnida "men" so'zi o'rniga "biz" so'zini qo'llash tavsiya etiladi. Masalan, "Men tomonimdan olib borilgan izlanishlarimga tayanib, shuni xulosa qilamanki, ..." degan jumlaning o'rniga "Biz tomonimizdan olib borilgan izlanishlarga asoslanib, shuni xulosa qilishimiz mumkinki, ..." iboralarning ishlatilishi talab etiladi, ya'ni kurs ishi matni ilmiy tilda, rasmiy tusda bo'lishi kerak.

Talabaga tavsiya!

Kurs ishini yozishdan avval chiroyli yozish texnikasini mashq qilib oling, chunki barmoqlaringiz uyali telefonda sms yozishdan ancha charchagan!

Kurs ishi qo'lyozma tarzida rasmiylashtirilgan bo'lishi shart.

Kurs ishi A4 o'lchamdagi oq qog'ozda, ko'k rangli ruchkada yozilishi tavsiya qilinadi, boshqa rangdagi ruchkalarni ishlatishga yo'l qo'yilmaydi. Matnda ajralib tursin deb, reja savollari, jadvallar, rasmlar raqamini va nomlarini ham boshqa rangli ruchkada yozishga yo'l qo'yilmaydi. Ishda foydalanilgan jadvallar, diagrammalar, chizmalar va rasmlar komputer grafikasida tayyorlanib, printerda chop etilgan (A4 o'lchamdagi oq qog'ozda) holda keltirilishi mumkin. Kurs ishini kafedraning ruxsati bilan faqat ayrim ob'ektiv sabablarga ko'ra komputerda bajarishga ruxsat beriladi. Kurs ishida qo'pol texnik tuzatishlarga yo'l qo'yilmagani ma'qul.

Kafedraning tavsiyasiga binoan kurs ishi chet (ingliz) tilida bajarilishi mumkin. Chet tilda bajarilgan ishga davlat tilidagi annotatsiya ilova etiladi va kurs ishini himoya qilish vaqtida tarjima ta'minlanadi.

Kurs ishini yozishda varaqning chap tarafidan - 3 sm., pastdan va tepadan - 2 sm., o'ngdan - 1,5 sm. joy qoldirish tavsiya qilinadi, bunda bir varaqda 28-30 qator yozuv bo'lishi zarur. Bunday cheklovlar kurs ishi hajmining sun'iy ravishda orttirib yuborilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida belgilanadi. Varaq tagiga tipografik sharoitda tayyorlangan yo'l-yo'l qog'oz qo'yib yoziladi, varaqning o'ziga matn yozish uchun to'g'ri chiziqlar chizish yoki printerda chiziqlar chizilgan varaqlarga yozish tavsiya etilmaydi.

Kurs ishining barcha betlari rejadan boshlab oxirgi betigacha tartib bilan raqamlanadi. Birinchi bet titul varag'i hisoblangani uchun unga raqam qo'yilmaydi. (5-ilova)

1-betda odatda kurs ishining rejasi aks ettiriladi va bu bet ham raqamlanmaydi, shuningdek, uning boshiga kurs ishi mavzusini yozib qo'yish shart emas, bu betda "Reja" degan so'zdan keyingi qatorida rejaning qismlarini aks

ettirish kifoya. Kirish qismi bayoni 3-betdan boshlanadi va bu betga “3” raqami qo‘yiladi va hokazo. Tartib raqami varaqning pastki tomonining o‘rtasiga qo‘yiladi.

Kurs ishi bo‘lim (savol) larining har biri yangi varaqdan boshlanadi va bo‘limning nomlanishi rejada qanday bo‘lsa, o‘zgartirishsiz shundayligicha varaq satrining o‘rtasiga yoziladi. Sarlavhalarni yozishda so‘zlarni bo‘g‘inlab ko‘chirishga ruxsat berilmaydi, shuningdek, sarlavha oxirida nuqta qo‘yilmaydi. Sarlavhaning tagiga chizib yozishga ruxsat etilmaydi. Har bir sarlavhadan oldin bo‘limning tartib raqami arab raqami bilan belgilanadi va raqamdan so‘ng nuqta qo‘yiladi. Agarda rejada belgilangan savollar kichik savollarga bo‘lingan bo‘lsa, u holda bu savolchalar sarlavhasi ko‘p pog‘onali raqamlash qoidasiga ko‘ra “1.1.”, “1.2.” shaklida raqamlanadi.

Kirish, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati ham yangi varaqdan boshlab yoziladi va raqamlanmaydi. Kurs ishining asosiy qismi bo‘limlari nomlari, shuningdek, “Kirish”, “Xulosa”, “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati” so‘zlari bir xilda varaqning yuqori qismining o‘rtasiga, matn esa sarlavhadan keyin bir qator tashlab, keyingi qator xatboshidan katta harf bilan boshlab yoziladi.

Illyustrativ materiallar, masalan, rasmlar, diagrammalar ko‘rish uchun qulay tarzda joylashtirilishi kerak. Kurs ishiga PowerPoint dasturida tayyorlangan tayyor slaydni joylashtirishga ruxsat berilmaydi, slayddagi materialni Word dasturida tayyorlab, so‘ngra kurs ishi matniga kiritish maqsadga muvofiq, chunki PowerPoint dasturida tayyorlangan slaydlar taqdimot qilish uchun mo‘ljallangan, unda qisqa ma‘lumotlar, bog‘langan blok-chizmalar, rasmlar, boshqa rangli tasvirlar bo‘ladi, kurs ishi esa ma‘lum talablar asosida tayyorlangan jiddiy ilmiy ish bo‘lib, agar kafedra tomonidan kurs ishi himoyasi taqdimot ko‘rinishida amalga oshirilishi talab etilsagina, PowerPoint dasturida tayyorlangan taqdimotni printerda chop etib, kurs ishiga ilova qilishingiz mumkin.

Barcha surat (grafik, chizma, diagramma)lar bo‘lim bo‘yicha ketma-ket arab raqamlari bilan “1-rasm”, “2-rasm” shaklida raqamlanadi (kurs ishining ilovalarida keltirilgan suratlar bundan mustasno) va rasimga izoh beruvchi yozuvdan nuqta bilan ajratiladi (grafik, chizma, diagrammalarni rasmiylashtirish tartibi 6-ilovada ko‘rsatilgan).

Raqamli materiallar jadval ko‘rinishida rasmiylashtirilishi lozim. Har bir jadval sarlavhaga ega bo‘lishi kerak. Sarlavha bosh harf bilan boshlanadi, sarlavhaning tagiga chizilmaydi.

Jadvalning sarlavhasi uning yuqorisiga, o‘rtaga yozilishi tavsiya etiladi. Jadval ustunlarining sarlavhalari bosh harflar bilan, sarlavhachalar esa, agar ular sarlavhadagi gapning davomidan iborat bo‘lsa, kichik harflar bilan, agar ular mustaqil bo‘lsa, katta harflar bilan boshlanishi kerak.

Ko‘plab ustunlardan iborat bo‘lgan jadvalni qismlarga bo‘lish va bir qismni ikkinchi qismdan keyin joylashtirishga ruxsat etiladi.

Kurs ishining bo‘limlari tarkibidagi jadvallar izchil, ketma-ket arab raqamlari bilan belgilanadi. Masalan: “1-jadval”, “2-javdal” va h.z.

Jadvalning biror qismi ishning keyingi betiga o'tish holatlarida "jadval" so'zi, uning tartib raqami va sarlavhasi bir marta jadvalning bosh qismi ustida ko'rsatilib, keyingi betga o'tgan qismlar ustiga "davomi" degan so'z yoziladi.

Kurs ishini yozish davomida foydalanilgan manbalarga havola("snoska")-larni satr osti eslatmalarida keltirish lozim. Havola har bir betda 1 raqamidan boshlab tartib bilan, sanoq ketma-ketligida, arab raqamida keltirilishi lozim.

Havolalar quyidagi holatlarda qo'llaniladi:

- matnda qo'llanilgan hujjat yoki ta'rifni tasdiqlash uchun;
- foydalanilgan adabiyotlar va birlamchi manbalarni ko'rsatish uchun;
- matnda keltirilgan biror muammo, xulosa yoki taklifning olingan adabiyoti yoki boshqa manbasini ko'rsatish uchun;
- davlat arboblari, olimlar va mutaxassislar fikrlaridan iqtibos keltirilganda;
- statistik ma'lumotlar va to'plamlardan iqtibos keltirilganda;
- me'yoriy-huquqiy hujjatlardan iqtibos keltirilganda va boshqa holatlarda.

Har bir betda havolalar ko'payib ketmasligi, iloji bo'lsa, bir betda uchtdan ko'p havola ishlatmaslikka harakat qilish kerak. Rasmlar va jadvallarga qilingan havolalar sarlavhaning oxirgi so'ziga qo'yiladi (6-ilovalarga qarang).

Adabiyotlarni rasmiylashtirish tartibi, ya'ni foydalanilgan manbaning nomi, muallifi, nashriyotning nomi, nashr etilgan yili va hajmi kabi ma'lumotlarni adabiyotlar ro'yxatida qanday tartibda keltirish lozimligi quyida ko'rsatilgan²:

1) Normativ-huquqiy hujjatlar nomlari:

1. O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonuni. 913-son, 2 sentabr 1993 yil. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 8 maydagi "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligi mexanizatsiyalash muhandislari institutida oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3702-sonli qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni.

2) Darslik va o'quv qo'llanmalar nomlari:

1. Mc Connell, Brue. Economics. 17 th edition. Mcgraw-hill/Irvin, USA, 2009.

2. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. -T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2014. -480 b.

3. Shodmonov.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. -T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2010. -728 b.

4. Jo'rayev.T.T., Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi. Ko'rgazmali qo'llanma. -T.: "fan va texnologiya", 2014. -448 b.

² Magistratura to'g'risidagi nizom. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2012-yil 29-oktyabrdagi 418-son buyrug'i bilan tasdiqlangan. 5-ilova.

3) Ilmiy jurnallardagi maqolalar nomlari:

1. Haydarov N.X. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimini rivojlantirishda davlat moliyasining o‘rni // Iqtisod va moliya. – Toshkent, 2013. – № 9. –B. 13.

2. Бакайбаева А.С. Учет доходов государственного бюджета с использованием казначейских технологий в Республике Узбекистан // Iqtisod va moliya. – Toshkent, 2013. – № 12. – B. 7.

4) Internet saytlari quyidagi tartibda keltiriladi:

<http://www.mf.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.

Mazkur Ko‘rsatmalarning 3-ilovasidagi adabiyotlar ham kurs ishini bajarishda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatini rasmiylashtirish tartibiga to‘liq rioya qilingan holda keltirilgan.

Agar kurs ishida ilovalar mavjud bo‘lsa, u holda ular foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan keyin, har bir ilovani yangi betning o‘ng yuqori burchagiga “Ilova” so‘zini yozgan holda keltirish tavsiya etiladi. Agar kurs ishida bittadan ko‘p ilova bo‘lsa, ular ketma-ket arab raqamlari bilan belgilanadi. Masalan, “1-ilova”, “2-ilova” va h.z. Kurs ishi matnida bu ilovalarga havolalar bo‘lishi kerak va ular “1-ilovaga qarang”, “2-ilovada keltirilgan” kabi so‘zlar bilan ko‘rsatiladi. Hajm jihatdan katta jadvallar, rasmlil illyustratsiyalar, shuningdek, korxonalar va tashkilotlar, moliya, soliq, organlarining ma’lumotlari kurs ishiga ilova tarzda keltirilishi maqsadga muvofiq.

Kurs ishining rejasi ma’lum ma’nodan mundarija vazifasini o‘taydi, shu sababli, agar kurs ishiga ilovalar keltirilgan bo‘lsa, rejadagi “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati” so‘zlaridan keyingi qatoriga “Ilovalar” degan so‘z kiritilishi kerak.

VI. KURS ISHINI HIMOYA QILISH

Kurs ishini himoya qilish jarayoni talaba uchun eng muhim bosqich hisoblanadi. Unda talabaning kurs ishi mavzusi bo‘yicha to‘plagan bilimlari sinaladi. Talaba o‘z ishini yaxshi bilishi, to‘plagan ma’lumotlarining manbalarini aniq ko‘rsata olishi, hisob-kitoblar asosida tahlil uslubiyoti va usullarini tushuntirib berishi, nazariy va amaliy savollarga javob bera olishi lozim.

Yozib tugatilgan kurs ishi kafedra tomonidan belgilangan muddat ichida kafedrada ro‘yxatga olish yo‘li bilan qayd etilgandan so‘ng, tanishib chiqish va taqriz berish uchun kurs ishi rahbariga (yoki pedagog-xodimlarning o‘quv yuklamasi doirasi boshqa o‘qituvchiga) beriladi.

Kurs ishiga yozilgan taqrizda quyidagilar qayd etilishi zarur:

- kurs ishi mavzusining dolzarbligi va ko‘rilgan savollarning o‘rinliliigi;
- ishning nazariy saviyasi va ilmiylik darajasi;
- adabiyotlardan to‘plangan materiallarni mustaqil izlanishlar asosida mantiqiy izchillikda bayon qilinganligi;
- muallifning ishda keltirilgan raqamli ma’lumotlarni tahlil qilish qobiliyati, xulosalarni bayon qilish saviyasi;
- himoyagacha amalga oshirish lozim bo‘lgan tavsiyalar;

- kurs ishining himoyaga qo'yilganligi haqidagi yakuniy xulosa ("himoyaga qo'yiladi" yoki "himoyaga qo'yilmaydi" shaklida).

Talabaga ogohlantirish!
Diqqat qiling, "g'alvirni suvdan ko'taradigan" vaqt keldi. Siz uchun birov jangga kirmaganidek, himoyaga ham kirmaydi!

Kurs ishi himoyasi kafedrada tashkil etiladi. Bu maqsadda fan bo'yicha kurs ishi himoyasi uchun 3 kishidan kam bo'lmagan tarkibda komissiya tuziladi. Kurs ishini talaba Komissiya huzurida himoya qiladi. Komissiya a'zolari bilan

talaba o'rtasidagi suhbat asosida talabaning bilim darajasi, mavzu ustida ishlash jarayonida orttirgan ko'nikmalari aniqlanadi. Dastavval talaba o'zi yozgan ishi bo'yicha uning mazmuni, o'rganish predmeti, amaliy ma'lumotlarning manbasi, ularni umumlashtirish usullari, asosiy xulosalarini qisqacha yoritib beradi. So'ngra taqrizda ko'rsatilgan kamchiliklar bo'yicha hamda ish yuzasidan qo'shimcha savol-javoblar asosida talabaning bilimlari tekshiriladi va himoya natijasiga ko'ra kurs ishi baholanadi. Kurs ishini baholash talabalar bilimini reyting tizimi asosida baholash tartibiga ko'ra ballarda amalga oshiriladi.

Kurs ishining natijasi fakultet dekanati tomonidan taqdim etilgan qaydnoma varaqasiga tegishli tartibda qayd etiladi va Komissiya a'zolari imzolari bilan rasmiylashtiriladi.

Baholash tartibi va mezonlari

Talabalarning kurs ishi bo'yicha bilim saviyasi, ko'nikma va malakalari darajasi, ular bilimni nazorat qilish hamda baholashning reyting tizimi to'g'risidagi Nizom qoidalari asosida ballarda ifodalanadi.

Amaldagi 2018 yil 9 avgustdagi Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi NIZOM ga muvofiq talabaning kurs ishi bo'yicha bilimni o'zlashtirish darajasi – 5 baholik tizimda baholanadi:

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 5 (a'lo) baho;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 4 (yaxshi) baho;

talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho;

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

Kurs ishi bo'yicha 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba akademik qarzdor talaba hisoblanadi.

**TALABALAR NASL-NOMASI BOSH XARFI BO‘YICHA MAVZULARNING
TAQSIMLANISHI**

1.	A	1-32-68-91-104-136-165	17.	R	8-39-84-100-122-150
2.	B	3-34-89-92-105-137-166	18.	S	10-41-82-101-123-151
3.	D	9-40-83-95-106-138-167	19.	T	12-43-80-102-124-152
4.	E	26-57-66-107-139	20.	U	2-33-90-97-125-153
5.	F	16-47-76-108-141	21.	V	5-36-87-93-126-154
6.	G	7-38-85-94-109-142	22.	X	18-49-74-127-155
7.	H	11-42-81-96-111	23.	Y	23-54-69-128-156
8.	I	21-52-71-112-168	24.	Z	17-48-75-129-157
9.	J	15-46-77-113-169	25.	O‘	14-45-78-130-158
10.	K	25-56-67-114-143	26.	G‘	103-110-120-159
11.	L	27-58-65-115-144	27.	SH	22-53-70-131-160
12.	M	29-60-63-116-145	28.	CH	20-51-72-132-161
13.	N	19-50-73-117-140-146	29.	Yo	13-44-79-133-162
14.	O	4-35-88-98-118-147	30.	Yu	28-59-64-134-163
15.	P	6-37-86-99-119-148	31.	Ya	30-61-62-135-164
16.	Q	24-55-68-31-121-149			

KURS ISHI MAVZULARI

1-MAVZU	“Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili” Davlat dasturida ko‘zda tutilgan vazifalar.
2-MAVZU	Iqtisodiy qonunlar va jarayonlarni ilmiy bilish usullari.
3-MAVZU	Ehtiyojlarning mazmuni va ularning turkumlanishi.
4-MAVZU	“Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalari va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili” Davlat dasturining ahamiyati
5-MAVZU	Iqtisodiyot nazariyasining boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi.
6-MAVZU	Iqtisodiy resurslarning mazmuni va uning turlari.
7-MAVZU	Iqtisodiy resurslar va ehtiyojlarning qondirilish darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlik.
8-MAVZU	Iqtisodiyotga oid bilimlarning shakllanishi va rivojlanishi.
9-MAVZU	“Har bir oila – tadbirkor” Davlat dasturining ahamiyati
10-MAVZU	Qadimgi Sharq va G‘arb xalqlaridagi iqtisodiy g‘oyalarning iqtisodiy rivojlanishga ta’siri.
11-MAVZU	Iqtisodiyot nazariyasining fan sifatida shakllanishidagi asosiy oqimlar.
12-MAVZU	Qadimgi Sharq davlatlari iqtisodiy taraqqiyotining muammolari, xususiyatlari.
13-MAVZU	“Yashirin” iqtisodiyotga qarshi kurashish, uning hajmini keskin qisqartirish yo‘llari.
14-MAVZU	Temur va temuriylar davridagi iqtisodiy siyosatning hozirgi davr uchun ahamiyati.
15-MAVZU	Merkantilizm va proteksionizm siyosatining ayrim mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishga ta’siri.
16-MAVZU	“Yoshlar – kelajagimiz” Davlat dasturining ahamiyati
17-MAVZU	Iqtisodiyotni erkinlashtirishda davlat aralashuvini keskin kamaytirishning ahamiyati.
18-MAVZU	Iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini isloh qilish va rivojlantirish orqali sog‘lom raqobat muhitini yaratish.

19-MAVZU	Yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirishning iqtisodiy o‘shishga ta’siri.
20-MAVZU	Innovatsion va yuqori texnologik ishlab chiqarishga o‘tish shart-sharoitlari.
21-MAVZU	«Obod qishloq» va «Obod mahalla» dasturlarining ahamiyati.
22-MAVZU	Ishlab chiqarish omillari to‘g‘risidagi nazariyalar va ularning hozirgi zamon talqini.
23-MAVZU	Valyutani erkinlashtirish siyosatini izchil davom ettirish, barqaror monetar siyosatni amalga oshirish yo‘li
24-MAVZU	Ishlab chiqarish jarayonining mazmuni va uning iqtisodiy asoslari.
25-MAVZU	Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishning o‘zaro bog‘liqligi.
26-MAVZU	2019 yildan boshlab joriy etilayotgan yangi soliq konsepsiyasining eng asosiy g‘oyalari.
27-MAVZU	Ishlab chiqarish samaradorligi, uning ko‘rsatkichlari va hisoblash usullari.
28-MAVZU	Mahsulot ishlab chiqarish hajmi va narxni shakllanish xususiyatlari.
29-MAVZU	Ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlarining o‘zaro bog‘liqligi.
30-MAVZU	Faol investitsiya siyosatini iqtisodiyotining barqaror o‘shishiga ta’siri.
31-MAVZU	Erkin raqobatga asoslangan va hozirgi zamon bozor iqtisodiyotining o‘zaro daxldorligi.
32-MAVZU	Mulkchilik munosabatlarining iqtisodiy mazmuni.
33-MAVZU	Iqtisodiyotni isloh qilishda mulkchilikning o‘rni.
34-MAVZU	O‘zbekiston Respublikasida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish va uning hozirgi holati.
35-MAVZU	Tovar ishlab chiqarishning vujudga kelishi va rivojlanishi sabablari.
36-MAVZU	Tovarning nafliligi va Tovar qiymati.
37-MAVZU	Mehnat unumdorligi va intensivligining tovar qiymati miqdoriga ta’siri.
Z8-MAVZU	Tovar qiymatining farqlanishi shart-sharoitlari. Qiymat paradoksi.
39 -MAVZU	Pulning kelib chiqishi, mazmuni. Hozirgi zamon pulining tabiati va mazmuni.
40-MAVZU	O‘zbekistonda milliy valyutasi – so‘mning muomalaga kiritilishi bosqichlari va ularning ahamiyati.
41-MAVZU	Bozor iqtisodiyotining mazmuni va uning rivojlanishi.
42- MAVZU	Klassik va hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti, ularning umumiy tomonlari va farqlari.
43-MLVZU	Zamonaviy bozor xo‘jaligi modellari.
44-MAVZU	Bozor iqtisodiyoti sharoitida resurslardan samarali foydalanish yo‘llari.
45-MAVZU	Iqtisodiyotni rivojlantirishga doir strategik vazifalarni ro‘yobga chiqarishga qodir malakali kadrlarni tayyorlash.
46- MAVZU	Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilash xaruriyati
47- MAVZU	Buyruqli iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o‘tishning xususiyatlari.
48-MAVZU	Budjet mablag‘laridan samarali foydalanish tizimini yanada takomillashtirish.
49-MAVZU	Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning milliy modellari.
50-MAVZU	O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o‘tishning bosqichlari.
51-MAVZU	O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish konsepsiyasi va strategiyasi.
52-MAVZU	O‘zbekistonda islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirishning asosiy yo‘nalishlari.
53-MAVZU	Prezident Sh.Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan “Harakatlar strategiyasi”, uning asosiy yo‘nalishlari va vazifalari.
54- MAVZU	Talab tushunchasi, talab miqdoriga ta’sir qiluvchi omillar.
55-MAVZU	Taklif tushunchasi va taklif miqdoriga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar. qonuni.

56- MAVZU	Narxning mazmuni va narx to'g'risidagi turli nazariyalar uning obektiv asoslari.
57-MAVZU	Innovatsion iqtisodiyot sharoitida narxning shakllanishi.
58-MAVZU	Narx siyosati va uning O'zbekistonda amalga oshirilish xususiyatlari.
59-MAVZU	Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish istiqbollari.
60-MAVZU	Raqobatning mohiyati va obektiv asoslari.
61-MAVZU	O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning xalqaro reytingi.
62-MAVZU	Raqobat kurashining zamonaviy shakllari.
63-MAVZU	Monopoliyaning mohiyati va uning vujudga kelishi sabablari.
64-MAVZU	O'zbekistonda raqobat muhitining kuchaytirish borasidagi chora-tadbirlar.
65-MAVZU	O'zbekistonda transport-logistika tizimini takomillashtirish masalalari.
66-MAVZU	Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar.
67-MAVZU	O'zbekiston respublikasining monopoliyalarga qarshi qonunchiligi va uni amalga oshirish mexanizmi.
68-MAVZU	Ish haqining mohiyati va iqtisodiy mazmuni.
69-MAVZU	Xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun mamlakat investitsiya salohiyatini hisobga olish.
70-MAVZU	Mehnat munosabatlari va mehnat shartnomalari.
71-MAVZU	Xalqaro valyuta fondlari, tashkilotlari va tizimlari.
72-MAVZU	Ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifni o'zgartirish.
73-MAVZU	Mehnat munosabatlarini tartibga solishda davlatning roli.
74-MAVZU	Ishchi kuchi migratsiyasi va uning shakllari.
75-MAVZU	O'zbekistonda ishchi kuchi bandligini ta'minlash borasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari.
76-MAVZU	Iste'molchi xulqi nazariyasi.
77-MAVZU	Narx va daromadlar o'zgarishining iste'molchi tanloviga ta'siri.
78-MAVZU	Tadbirkorlik faoliyatining mohiyati va iqtisodiy mazmuni.
79-MAVZU	O'zbekistonda hududlarni kompleks rivojlantirish tadbirlarini ishlab chiqish va izchil davom ettirishning ahamiyati.
80-MAVZU	Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy sektorni jadal rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlarini ko'paytirish.
81-MAVZU	Tadbirkorlik faoliyatining shakllari.
82-MAVZU	Aksiyadorlik jamiyati va aksiyadorlik kapitali.
83-MAVZU	Marketing, uning maqsadi, vazifalari va tamoyillari.
84-MAVZU	Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash eng muhim vazifa.
85-MAVZU	Tadbirkorlik kapitalining doiraviy aylanishi va uning bosqichlari.
86-MAVZU	Asosiy kapitaldan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari.
87-MAVZU	Ishlab chiqarish xarajatlarining mazmuni, tarkibi va turlari.
88-MAVZU	Korxonalar (firma) ning pul tushumlari va foydasi.
89- MAVZU	Foyda miqdoriga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.
90- MAVZU	Agrar munosabatlar va ularning bozor tizimidagi o'rni.
91-MAVZU	Qishloq xo'jaligida takror ishlab chiqarishning xususiyatlari.
92-MAVZU	Agrobiznes va uning turlari.
93-MAVZU	Dehqon va fermer xo'jaliklarining iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni.
94-MAVZU	O'zbekistonda agrar islohotlarni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari.
95-MAVZU	Fermer xo'jaliklari yer maydonlari hajmini optimallashtirish.
96-MAVZU	Qishloq joylarda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish.
97-MAVZU	Milliy iqtisodiyotning mazmuni va uning tuzilishi.
98-MAVZU	Makroiqtisodiy tahlil va uning vazifalari.

99-MAVZU	Iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, mehnat unumdorligini oshirish orqali yuqori iqtisodiy o'sishni ta'minlash omillari.
100-MAVZU	Milliy mahsulotning iqtisodiy mazmuni va uning harakat shakllari.
101-MAVZU	Yalpi milliy mahsulot (Yalpi ichki mahsulot)ni o'stirish omillari.
102- MAVZU	Xufyona iqtisodiyot, uning o'lchamlari va namoyon bo'lish shakllari.
103-MAVZU	Milliy hisoblar tizimi va uni shakllanish bosqichlari.
104- MAVZU	YaIMni hisoblash usullari.
105- MAVZU	YaIMni hisoblash usullarining afzalliklari va kamchiliklari.
106- MAVZU	Yalpi talab tushunchasi va uning tarkibi. Yalpi talab miqdoriga ta'sir etuvchi omillar.
107- MAVZU	Yalpi taklif tushunchasi va uning tarkibi. Yalpi taklif miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar.
108- MAVZU	Iste'mol va jamg'arma hamda ularning maqsadi.
109- MAVZU	Iste'mol va jamg'arma hajmiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.
110- MAVZU	Iqtisodiy jamg'arishning mazmuni va uning manbalari.
111- MAVZU	Investitsiyalarning mazmuni va vazifalari.
112- MAVZU	Valyuta kursi va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.
113- MAVZU	O'zbekistonda investitsion faoliyatni ta'minlash shart-sharoitlari.
114- MAVZU	Tarkibiy o'zgarishlarni izchil amalga oshirishda qulay investitsiya muhitining yaratilishi.
115- MAVZU	Iqtisodiy o'sish, uning mezoni va ko'rsatkichlari.
116- MAVZU	Yalpi talab va yalpi taklif o'zgarishining iqtisodiy o'sishga ta'siri.
117- MAVZU	Ishlab chiqarish klasterlari faoliyatini har tomonlama rivojlantirish.
118- MAVZU	Milliy boylik va uning tarkibiy qismlari.
119- MAVZU	MHTda milliy boylikni aniqlashning o'ziga xosligi.
120- MAVZU	Iqtisodiy o'sish samaradorligini ta'minlashda tejamkorlikning o'rni.
121- MAVZU	Tabiiy, moddiy va moliyaviy resurslardan tejab-tergab foydalanish yo'llari.
122- MAVZU	O'zbekistonda iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish, diversifikatsiyalash modernizatsiyalash asosida mutanosibli rivojlantirish.
123- MAVZU	Innovatsion texnologiyalarni joriy qilishning ahamiyati.
124- MAVZU	Aholi o'rtasida ishsizlikni kamaytirish, odamlar va oilalarning daromadini oshirish yo'llari.
125- MAVZU	Iqtisodiyotning siklli rivojlanishi, fazalari va tebranishlar.
126- MAVZU	Iqtisodiy inqirozning mazmuni, sabablari va turlari.
127- MAVZU	Pul-kredit sohasidagi inqirozning o'ziga xos xususiyatlari.
128- MAVZU	Agrar inqirozning o'ziga xosligi.
129- MAVZU	Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining mohiyati, kelib chiqish sabablari va salbiy oqibatlari.
130- MAVZU	Rivojlangan mamlakatlarning jahon moliyaviy inqirozidan chiqish borasidagi chora-tadbirlari.
131- MAVZU	Jahon moliyaviy inqirozining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri.
132- MAVZU	Jahon moliyaviy inqirozining oqibatlarini oldini olish va yumshatishga asos bo'lgan omillar.
133- MAVZU	Ishsizlik darajasi va uni aniqlash yo'llari.
134- MAVZU	Ishsizlikning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari.
135- MAVZU	Inflyatsiya va uning kelib chiqish sabablari.
136- MAVZU	Inflyatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari.
137- MAVZU	Moliyaning mazmuni va takror ishlab chiqarishdagi ahamiyati.
138- MAVZU	Davlat budjeti va uning moliyaviy resurslarni shakllantirishdagi ahamiyati.
139- MAVZU	O'zbekiston Respublikasi davlat budjetining tuzilishi.
140- MAVZU	Budjet taqchilligi va davlat qarzlari, ularning iqtisodiyotga ta'siri.

141- MAVZU	Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliqlar va uning vazifalari.
142- MAVZU	Soliq solish tamoyillari va soliq imtiyozlari.
143- MAVZU	O'zbekistonda soliq tizimining soddalashtirilishi va unifikatsiya qilinishi.
144- MAVZU	Fiskal (soliq-budjet) siyosat va uning moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni.
145- MAVZU	Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini aniqlash.
146- MAVZU	Kreditning mohiyati, vazifalari va turlari.
147- MAVZU	Foiz stavkasi va uning darajasini aniqlovchi omillar.
148- MAVZU	Kredit-pul tizimini davlat tomonidan tartibga solish.
149- MAVZU	O'zbekiston bank tizimi.
150- MAVZU	Banklarning iqtisodiy mazmuni va vazifalari
151- MAVZU	O'zbekiston pul - kredit siyosati.
152- MAVZU	Pul miqdorining tovarlar va xizmatlar miqdorining bog'liqligi.
153- MAVZU	Iqtisodiyotni tartibga solishning mohiyati va zarurligi.
154- MAVZU	Davlat tomonidan tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solinishi.
155- MAVZU	Aholi daromadlari, ularning turlari va shakllanish manbalari.
156- MAVZU	Oila budjeti: daromadlar va xarajatlar tarkibi.
157- MAVZU	Bank va moliya tizimidagi islohotlar.
158- MAVZU	Bozor iqtisodiyoti sharoitida daromadlar tengsizligini keltirib chiqaruvchi omillar.
159- MAVZU	Daromadlarni davlat tomonidan qayta taqsimlash g'oyasi, maqsadi va dastaklari.
160- MAVZU	Innovatsion rivojlanish sharoitida aholini ijtimoiy himoyalashning asosiy yo'nalishlari.
161- MAVZU	Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning mazmuni va shakllari.
162- MAVZU	Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mazmuni va asosiy shakllari.
163- MAVZU	Ochiq iqtisodiyot va uning o'ziga xos belgilari.
164- MAVZU	Mintaqalardagi asosiy integratsion guruhlar.
165- MAVZU	O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga qo'shilishining shart-sharoitlari.
166- MAVZU	O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy yo'nalishlari.
167- MAVZU	Xalqaro savdo to'g'risidagi turli xil nazariyalar.
168- MAVZU	Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari.
169- MAVZU	Jahon valyuta tizimining rivojlanish bosqichlari.

JURNALLARGA MAQOLANI TAQDIM ETISH VA UNI CHOP ETISH TARTIBI

I. JURNALGA MAQOLANI TAQDIM ETISH TARTIBI

1. Ilmiy maqola qo'yidagi umumiy talablarga javob berishi:

- mavzu jurnal ruknlaridan biriga mos kelishi;
- empirik tadqiqot, nazariy-amaliy-uslubiy tavsiflar, ilmiy adabiyotlar tahlili va sharhini o'zida tizimlashgan holda mujassam etishi;
- himoya qilingan doktorlik (PhD va DSc) tadqiqotlaridan iqtibos keltirilishi;
- xalqaro yirik nashriyotlar yoki ma'lumotlar bazasi, shuningdek jahonning 1000 (bir ming) ta eng yaxshi oliy ta'lim muassasasi (OTM) ro'yxatidagi OTMlar tomonidan chop etilgan to'plam materiallaridan iqtiboslar berilishi;
- xalqaro ma'lumotlar bazasida impakt-faktorga ega jurnallarda chop etilgan maqolalardan iqtiboslar keltirilishi;

2. Maqola xalqaro andozalar talabi doirasidagi quyidagi bandlarga ega bo'lishi:

- **maqola mavzusi (title)** qisqa va lo'nda shakllantirilgan bo'lib, tadqiq etilayotgan yo'nalish muammolari va ularning yechimlarini o'zida aniq ifoda etishi;

- **maqola muallifi to'g'risida ma'lumot (author information)** da muallif va ilmiy rahbarining familiyasi, ismi-sharifi (to'liq), ish joyi va lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, elektron pochta manzili va telefon raqami kiritilishi.

Shu jumladan, maqola tarkibi xalqaro andozalar talabi doirasidagi quyidagi yaxlit tizimlashgan aniq bandlarga bo'lingan bo'lishi:

- **maqola annotatsiyaci (abstract)** 6-8 qatordan oshmagan holda o'zbek, rus va ingliz tillarida berilishi, unda mavzuning dolzarbligi, tadqiqot muammosi va yechimini topishda muallifning ilmiy-amaliy hissasi, qo'llanilgan metodologiya, tadqiqot natijalari yoritilishi;

- **tayanch so'zlar (key words)** har biri maqola matnida o'rtacha 4 va undan ko'p marta takrorlanganligidan va ular mantiqan qisqa mazmunda maqola mohiyatini ochib berishga xizmat qilishi;

- **kirish (introduction) qismida** asosan tadqiqot muammosi, uning maqsad va vazifalari yoritilishi, mavzuni tanlashni asosi, uning dolzarbligi va ilmiy ahamiyati yoritilishi (ushbu qismda konstitutsiya, qonunlar, Prezident asarlari va ma'ruzalariga, farmon va qarorlarga asoslanishi);

- **mavzuga oid adabiyotlar tahlili (literature review)** tadqiq etilayotgan muammo yuzasidan muallifning bilim va tasavvurini namoyon etuvchi qism bo'lib, tanqidiy tahlil asosida mavzu doirasidagi bilimlarni kuchaytirishi va tadqiqot natijalarini oydinlashtirishi, muammoga daxldor xorij va mamlakatimizda mavjud ilmiy manbalar tahlilini o'zida aks ettirishi;

- **tahlil va natijalarda (analysis and results)** metodologik yondashuv asosida qator modellar va boshqa usullarni ma'lumotlar tahlili orqali olingan natijalar o'z aksini topishi, albatta jadval va rasmlar bo'lishi (jadval nomi uning

yuqori qismida, rasm nomi uning quyi qismida yozilishi hamda manbalari aniq ko'rsatilishi);

- **xulosa va takliflar (conclusion/recommendations)** tadqiqotning asosiy natijalarini, shu bilan birga muammolar yechimi yuzasidan mulohazalarni o'zida aks ettirishi;

- **foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (references)** [1], [2] yoki [3] ketma-ketligida keltirilishi: *2018/2019 o'quv yilining birinchi yarmi uchun*

muallif (famiyasi, ismi-sharifi), kitob nomi, nashr nomi, nashriyot etilgan joy, yili, aynan foydalanilgan betlarni;

muallif(lar) ismi-sharifi, maqola nomi, jurnal nomi, nashri, yili, soni, aniq betlari;

3. Maqola quyidagi standart talablarga javob berishi:

- matn Microsoft Word 2010, 2016 dasturida, Times New Roman, 14 shriftda, 1 intervalda bo'lishi;

- matn sahifasining barcha (o'ng, chap, yuqori va quyi) tomonidan 2 santimetrdan iborat joy qoldirilishi, uning minimal hajmi 6 betdan kam bo'lmasligi, maksimal hajmi esa 15 betdan oshmasligi;

- foydalanilgan adabiyotlar soni 7 (etti)tdan kam bo'lmasligi;

- maqola qog'oz va elektron variantda muallif imzosi bilan taqdim etilishi va quyidagi talablarga to'liq javob berishi shart:

asosiy matn -o'zbek, rus yoki ingliz tillaridan birida yozilgan;

qo'shimcha matn - maqolaning asosiy mazmunini o'zida aks ettirgan 2 (ikki) betdan kam bo'lmagan hajmida, annotatsiya shaklida ingliz tilida tayyorlangan.

4. Maqolani chop etish yuzasidan tahririyat faoliyati:

- maqolani ekspertga xulosa berish uchun taqdim etishi va uning natijasi asosida maqolani chop etish yuzasidan tegishli qaror qabul qilishi;

- belgilangan talablarga javob bermagan maqola ko'rib chiqilmasligi va muallif(lar)ga qaytarilmasligi;

Yuqorida keltirilgan talablar yakuniy emas, ba'zi maqolalar yuzasidan Tahririyat qo'shimcha ma'lumot so'rash huquqini o'zida saqlab qoladi.

Asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar ro‘yxati

1) Normativ-huquqiy hujjatlar nomlari:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni. 913-son, 2 sentabr 1993 yil. (o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 8 maydagi “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligi mexanizatsiyalash muhandislari institutida oliy ma‘lumotli kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3702-sonli qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni.

2) Darslik va o‘quv qo‘llanmalar nomlari:

1. Mc Connell, Brue. Economics. 17 th edition. Mcgraw-hill/Irvin, USA, 2009.
2. O‘lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. -T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2014. -480 b.
3. Jo‘rayev.T.T., Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi. Ko‘rgazmali qo‘llanma. -T.: “fan va texnologiya”, 2014. -448 b.
4. Shodmonov.Sh., Xodiyev B.Yu. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. -T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2018. -728 b.

3) Ilmiy jurnallardagi maqolalar nomlari:

1. Haydarov N.X. O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim tizimini rivojlantirishda davlat moliyasining o‘rni // Iqtisod va moliya. – Toshkent, 2013. – № 9. –B. 13.
2. Бакайбаева А.С. Учет доходов государственного бюджета с использованием казначейских технологий в Республике Узбекистан // Iqtisod va moliya. – Toshkent, 2013. – № 12. – B. 7.

4) Internet saytlari quyidagi tartibda keltiriladi:

<http://www.mf.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.

KURS ISHI REJALARI NAMUNALARI

Kirish

1. Mikroiqtisodiy tahlilning mohiyati va uning ko'rsatkichlari.
2. Mikroiqtisodiy samaradorlik va uni oshirish yo'llari.
3. Makroiqtisodiy tahlil va uning asosiy ko'rsatkichlari.
4. Makroiqtisodiy samaradorlik va uni oshirish yo'llari.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Kirish

1. Ishlab chiqarish jarayonining iqtisodiy mazmuni va ijtimoiy shakllari.
2. Ishlab chiqarish omillari, ularning birinchi usullari va o'zaro ta'siri.
3. Ishlab chiqarishning umumiy va pirovard natijalari.
4. Ishlab chiqarish omillarining iqtisodiy samaradorligi va ularning ko'rsatkichlari.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Kirish

1. Ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi mehnat taqsimotining namoyon bo'lish shakli sifatida.
2. Ishlab chiqarish ixtisoslashuvining tamoyillari va asosiy yo'nalishlari.
3. Ixtisoslashuv sharoitida iqtisodiy integratsiya va uning asosiy shakllari.
4. Bozor islohatlari sharoitida integratsion jarayonlarning rivojlanish xususiyatlari.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

“IQTISODIYOT NAZARIYASI” KAFEDRASI

“IQTISODIYOT NAZARIYASI” FANIDAN

KURS ISHI


Mavzu: _____

Bajardi: _____
(talabaning ismi-sharifi, otasining ismi)

(fakultet, bakalavriat yo‘nalishi, kursi, guruhi)

Ilmiy rahbar: _____
(ismi-sharifi, ilmiy darajasi, lavozimi)

TOSHKENT-2019



1-rasm. Hududlarda kichik tadbirkorlik sub`ektlarining respublika chakana savdo tovar aylanmasida ulushi³

³ Manba: www.stat.uz. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

TMI Moliya iqtisod fakulteti 1-kurs MM-71 guruhi talabasi Shaymanov
Elbekning **“Qishloq xo‘jaligiga investitsiyalar jalb etish va ulardan
foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llari”** mavzusidagi kurs ishiga ilmiy
rahbar
TAQRIZI

Qishloq xo‘jaligida tub tarkibiy siljishlarga erishish respublikamiz iqtisodiyotining yuksalishi va xalqaro integratsiyalashuvini ta‘minlashning zaruriy asoslaridan biri ekanligi bois tarmoqda keng ko‘lamdagi o‘zgarishlarni jadallashtirish va uni izchil davom ettirish masalasi agrar islohotlar samarasini oshirishni jiddiy vazifa qilib qo‘ymoqda.

Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy o‘shishning barqarorligi, ishlab chiqarishdagi yuqori samaradorlikni, ish bilan bandlikni ta‘minlash, aholini turmush darajasini oshirish, asosiy kapitalga bo‘lgan talabni qondirish kabi mavjud muammolarning ijobiy yechimini topishga tarmoqda investitsion faollikni oshirish va qishloq xo‘jaligi korxonalarining investitsiya faoliyatini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish orqaligina erishish mumkin. Shu nuqtai-nazardan yondoshganda qishloq xo‘jaligi korxonalariga investitsiyalar jalb etish va ulardan maqsadga muvofiq foydalanish muammolarini o‘rganish shu kunning dolzarb masalalaridan ekanligini ko‘rsatadi. Kurs ishining maqsadi – jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida qishloq xo‘jaligi korxonalariga investitsiyalar jalb etish mexanizmini tadqiq etish orqali ulardan oqilona foydalanish yo‘llarini ishlab chiqishdir.

Kurs ishining tarkibiy tuzilishi quyidagicha: kirish, asosiy qismda 3 ta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalar.

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, kurs ishining maqsadi va vazifalari, ob‘ekti va predmeti o‘z aksini topgan.

Asosiy qismning birinchi bobida qishloq xo‘jaligi korxonalariga investitsiyalar jalb etishning ahamiyati va xususiyatlari hamda ularning shakllanish manbalari hamda mexanizmlari yoritilgan.

Ikkinchi bobda qishloq xo‘jaligi korxonalariga investitsiyalar jalb etishga ta‘sir etuvchi omillar va ularni oshirish manbalarini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, qishloq xo‘jaligi korxonalarida investitsiyalar samaradorligini oshirish va ulardan samarali foydalanish yo‘llari yoritilgan.

Xulosa qismida kurs ishi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida erishilgan tavsiya va xulosalar o‘z aksini topgan.

Kurs ishi belgilangan talablarga javob beradi va komissiya oldida himoyaga tavsiya etiladi

Ilmiy rahbar

dots. X. Asatullayev

ЎЗБЕКИСТОНДА ОЗИҚ-ОВҚАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ВА УНИНГ УСТВОР ЙЎНАЛИШЛАРИ

Аннотация

Мақолада озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашнинг ҳозирги ҳолати ва мамлакатимизда бу борада олиб борилаётган изчил ислохотларнинг устувор йўналишлари кўрсатиб берилган.

В статье рассматривается текущее состояние продовольственной безопасности и приоритетные направления последовательных реформ в стране.

The article examines the current state of food security and priority areas for successive reforms in the country.

Калит сўзлар: озиқ-овқат маҳсулотлари; аҳоли талаби, озиқ-овқат хавфсизлиги; ҳаракатлар стратегияси, озиқ-овқат саноати; инвестиция, экспорт, импорт, саноат маҳсулотлари.

Ключевые слова: пищевые продукты; спрос населения, продовольственная безопасность; стратегия действий; пищевая промышленность; инвестиции, экспорт, импорт, промышленная продукция.

Key words: food products; population's demand, food security; strategy of action; food industry; investment, export, import, industrial products.

Озиқ-овқат маҳсулотларини аҳолининг талабини қондира оладиган даражада ва арзон нархларда ишлаб чиқариш ва истеъмолчиларга етказиб бериш бутун жаҳон мамлакатлари олдида турган долзарб муаммолардан бири эканлиги барчамизга маълум. Ер юзида аҳоли сонининг муттасил ортиб бораётганлиги ва мос равишда уларнинг эҳтиёжи ҳам сифат ҳам миқдор жиҳатдан ортиб бораётганлиги бу муаммони тобара мураккаблиштирмоқда.

Мустақилликнинг дастлабки йилларидан бошлаб юртимизда озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш мамлакатимиз ижтимоий-иқтисодий сиёсатининг устувор йўналишларидан бири сифатида қаралди. Аҳоли жон бошига нисбатан ғалла, гўшт, сут, тухум ва мева-сабзавот каби асосий турдаги озиқ-овқат маҳсулотларининг миқдори мутассил равишда ошириб борилди ва уларни қайта ишлашни йўлга қўйиш борасида хорижий ташкилотлар ва сармоядорлар билан ҳамкорлик олиб борилди. Натижада, бугунга келиб барча асосий турдаги озиқ-овқат маҳсулотлари мамлакатимизнинг ўзида ишлаб чиқарилиб, юртимизда озиқ-овқат хавфсизлигига эришилди.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармонининг 3-бўлими иқтисодиётни ривожлантириш ва либераллаштиришнинг устувор йўналишлари этиб белгиланган бўлиб бунда 2017-2021 йиллар давомида:

- қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини чуқур қайта ишлаш, ярим тайёр ва тайёр озиқ-овқат ҳамда қадоқлаш маҳсулотларини ишлаб чиқариш бўйича энг замонавий юқори технологик асбоб-ускуналар билан жиҳозланган янги қайта ишлаш корхоналарини қуриш, мавжудларини реконструкция ва модернизация қилиш бўйича инвестиция лойиҳаларини амалга ошириш;

- Озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш, мева-сабзавот, картошка ва узум ишлаб чиқариш ҳажмларини ошириш, ички бозорда уларга бўлган нархлар кескин ошишининг олдини олиш;

- мева-сабзавот маҳсулотларини ишлаб чиқариш ҳажмларини ошириш, жумладан, сабзавот — 105,7%, картошка — 106,3%, полиз — 106,1%, мева — 106%, узум — 105,7%, гўшт — 105,6%, сут — 108,1%, тухум — 111,3%, балиқ — 120% ва асал — 118,2 %га;

- 394 гектар майдонга 503 та иссиқхона хўжаликлари ва 6885 та аҳоли шахсий томорқаларидаги 176 гектар майдонда иссиқхоналар қуриш;

- аҳоли томорқалари ва дехқон хўжаликларида муқобил электроэнергия манбаларидан фойдаланиладиган энгил конструкцияли иссиқхоналар, кичик паррандачилик, балиқчилик, асаларичилик хўжаликларини тузиш ва бошқа юқори самарали ва юқори даромадли маҳсулотларни ишлаб чиқаришда амалий ёрдам кўрсатиш ҳамда ишлаб чиқарилган маҳсулотларни сотиш стратегик вазифа сифатида белгилаб берилган. [1]

1-жадвал

Ўзбекистон Республикаси ҳудудлари бўйича 2018 йил 1 январь ҳолатига доимий аҳоли сони тўғрисида маълумот [2]

	Доимий аҳоли сони, минг киши			Доимий аҳоли сонининг ўсиш суръати, %		
	Жами	шу жумладан:		Жами	шу жумладан:	
		шаҳар	қишлоқ		шаҳар	қишлоқ
Ўзбекистон Республикаси	32 653,9	16 533,9	16 120,0	101,7	101,7	101,6
Қорақалпоғистон Республикаси	1 842,4	905,6	936,8	101,4	101,2	101,5
<i>вилоятлар:</i>						
Андижон	3 011,6	1 576,5	1 435,1	101,7	101,6	101,7
Бухоро	1 870,0	698,6	1 171,4	101,4	101,0	101,7
Жиззах	1 324,9	622,2	702,7	101,8	101,7	102,0
Қашқадарё	3 148,1	1 358,4	1 789,7	101,9	102,4	101,5
Навоний	957,8	467,5	490,3	101,6	101,4	101,7
Наманган	2 699,0	1 743,2	955,8	101,8	101,5	102,1
Самарқанд	3 719,6	1 390,9	2 328,7	101,9	101,3	102,2
Сурхондарё	2 513,1	892,9	1 620,2	102,1	101,7	102,2
Сирдарё	815,7	349,8	465,9	101,6	101,1	101,9
Тошкент	2 861,3	1 412,3	1 449,0	101,1	102,3	100,1
Фарғона	3 620,1	2 049,6	1 570,5	101,6	101,3	101,8
Хоразм	1 804,7	600,8	1 203,9	101,6	104,9	100,0
Тошкент шаҳри	2 465,6	2 465,6	х	101,7	101,7	х

Юқоридаги 1-жадвалдан кўриниб турибдики, Республика миқёсида доимий аҳолининг ўсиш суръати 101,7 % ни ташкил этган ҳолда, ҳудудлари кесимида 2018 йил 1 январь ҳолатига доимий аҳолининг ўсиш суръатининг энг баланди Сурхондарё вилоятида 102,1 %ни, Қашқадарё ва Самарқанд вилоятларида 100,9%ни ташкил этгани ҳолда энг паст ўсиш суръати Тошкент вилоятида 100,1 %ни ташкил этган.

Юртимиз аҳоли сонининг йилдан-йилга ортиб бориши ва мос равишда уларнинг озиқ-овқат маҳсулотларига бўлган эҳтиёжларининг ортиб боришини ҳисобга олган ҳолда, республикаимиз табиий-иқтисодий имкониятларидан самарали фойдаланиб озиқ-овқат маҳсулотларини ишлаб чиқаришни кенгайтириш зарурлигини Президентимиз Ш.М.Мирзиёев 2017 йил 9 октябрдаги “Фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгаларининг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш, қишлоқ хўжалиги экин майдонларидан самарали фойдаланиш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПФ-5199-сон фармонида алоҳида таъкидлади. Ушбу фармонда 2018-2020 йилларда республикада озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш бўйича комплекс чора-тадбирлар дастурини ишлаб чиқиш, 2022 йилнинг 1 январидан бошлаб кўп тармоқли фаолиятни йўлга қўймаган фермер хўжаликлари билан ер ижараси шартномалари қонун ҳужжатларига мувофиқ бекор қилиниши таъкидланган. [3]

Доимий равишда ортиб бораётган мамлакатимиз аҳолисини озиқ-овқат маҳсулотлари билан таъминлаш борасида юртимизда олдиндан пухта режалаштирилган ислоҳатлар амалга ошириб келинмоқда жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 4 мартдаги «2015-2019 йилларда ишлаб чиқаришни таркибий ўзгартириш, модернизация ва диверсификация қилишни таъминлаш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида»ги Фармонида озиқ-овқат саноати соҳасида янги ишлаб чиқаришларни ташкил этиш, мавжудларини модернизациялаш ва қувватларни ошириш мақсадида 2020 йилга қадар фақат давлат инвестиция дастурларига кўра 304 та йирик лойиҳалар ва 5000 та янги ишлаб чиқариш корхоналари ташкил этилиши режалаштирилганлиги ҳамда йилига кўшимча равишда 100 минг тонна озиқ-овқат саноати маҳсулотлари, 130 хилдаги янги маҳсулот ишлаб чиқаришни йўлга қўйишга имкон бериши кўрсатиб ўтилган. [4] Мазкур лойиҳаларни амалга оширишда эркин иқтисодий зоналар фаолиятини янада жадалаштириш, янги технологияларни жорий этиш ва хом ашёни чуқур қайта ишлашга алоҳида эътибор қаратилади ҳамда аҳолини иш билан бандлигини таъминлашга муносиб ҳисса қўшилади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2016-2020 йилларда хом-ашё базасини ривожлантириш, мева-сабзавот, гўшт-сут маҳсулотларини чуқур қайта ишлаш ҳамда озиқ-овқат маҳсулотларини ишлаб чиқариш ва экспорт ҳажмини ошириш чора-тадбирлари тўғрисидаги фармонида 596 млн. доллар бўлган 180 та инвестиция лойиҳаларини амалга ошириш белгиланган. Шундан хорижий инвестициялар ва халқаро молия ташкилотларининг кредитлари ҳисобига 74 та лойиҳа амалга оширилиши кўзда тутилган бўлиб, бунга 163 млн. доллар миқдоридаги маблағлар жалб

этилиши белгиланган. [5]

Озиқ-овқат хавфсизлигини янада таъминлаш мақсадида президентимиз томонидан Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги ва Давлат солиқ қўмитаси зиммасига озиқ-овқат товарлари нархини пасайтириш ва барқарорлаштириш, тадбиркорлик фаолиятини амалга оширишдаги сансалорлик ва бюрократияни бартараф этиш, шунингдек, республикада ишчанлик муҳитини яхшилаш бўйича асослантилган таклифлар киритиш мақсадида тадбиркорлик субъектлари, жумладан аҳамиятга молик озиқ-овқат товарларини экспорт ва импорт қилувчилар, чет эллик инвесторлар ва хорижий ҳамкорлар билан доимий асосда мунтазам очик ва тўғридан-тўғри мулоқотларни ташкил этиш вазифаси юклатилган. [6]

Олиб борилаётган ижтимоий-иқтисодий ислохотлар натижасида бугунги кунда республикада саноат ривожланиши билан бир қаторда озиқ-овқат саноати ҳам жадал ривожланиб бормоқда. 2018 йилнинг 1-январ ҳолатига кўра мамлакатимиз саноат маҳсулотлари таркибида озиқ-овқат саноатининг улуши 19,6 % ни ташкил этади ёки жами 144185,3 млрд. сўмлик саноат маҳсулотлари ишлаб чиқарилган бўлса, шундан 28332,3 млрд.сўми озиқ-овқат саноати ҳиссасига тўғри келади. (2-расм) Ушбу кўрсаткичлар мос равишда 2016 йилда 24% , 2015 йилда 18,2% ва 2014 йилда 16% ни ташкил этган.

2-расм

Республика қайта ишлаш ва озиқ-овқат саноатлари динамикаси 2014-2017 йиллар млрд сўм [6]



Статистик маълумотлардан кўришиб турибдики озиқ-овқат саноати улуши 2014-2016 йиллар мобайнида ўсиш тенденцияси мавжуд бўлган, 2017 йилда озиқ-овқат маҳсулотлари ишлаб чиқариш улуши 19,6 фоизни ташкил этиши озиқ-овқат маҳсулотлари ишлаб чиқарилишини камайиши билан эмас балки, саноат маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажми нисбатан кўпайганлиги билан изоҳланади. 2016 йилда 26708,4 млрд сўмлик маҳсулот ишлаб чиқарилган бўлса, 2017 йилда 28332,3 млрд. сўмлик озиқ-овқат маҳсулотлари

ишлаб чиқарилган яъни 2016 йилга нисбатан 1623,9 млрд. сўмлик кўпроқ маҳсулот ишлаб чиқарилган. Бу ижобий тенденция фақатгина сон жиҳатидан эмас, балки сифат жиҳатидан ҳам ошиб бораётганлиги диққатга сазовордир.

Республикамиз аҳолиси сони йилдан-йилга ортиб бормоқда ва уларни етарли даражада ҳамда сифатли, озиқ-овқат маҳсулотлари билан таъминлаш асосий, долзарб масалалардан бири ҳисобланганлиги сабабли саноат тармоқларини жумладан, озиқ-овқат саноатини янада ривожлантириш учун катор чора тадбирлар амалга оширилмоқда.

Озиқ-овқат саноатини ривожлантириш борасида олиб борилаётган чора-тадбирлар, импорт ўрнини босувчи маҳсулот ишлаб чиқарувчи маҳаллий ишлаб чиқарувчиларни қўллаб-қувватлаш, республика бозорида уларнинг устунликка эга бўлишини таъминлаш, рақобатбардошликларини ошириш ва маҳаллий маҳсулотларни айрибошлаш бозорларини кенгайтиришга қаратилган.

Хулоса қилиб айтганда юртимизда бугунги кунда озиқ-овқат хавфсизлиги жаҳон талаблари даражасида таъминланиб бораётганлиги ва бу борада олиб борилаётган ишлар Жаҳон озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги (ФАО) томонидан дунёнинг бошқа давлатларига ўрناк қилиб кўрсатилаётганлиги мамлакатимизда озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш борасида олиб борилаётган ишлар яхши йўлга қўйилганлигини кўрсатади.

Озиқ-овқат маҳсулотлари ишлаб чиқаришда шуни ҳам унитмаслик керакки доимий ўсиш тенденциясига эга бўлган юртимиз аҳолисини тўйимли ва зарарсиз озиқ-овқат маҳсулотларини билан узлуксиз таъминлаш, бу борада тадбиркорлар фаоллигини ошириш ва инновацион технологиялардан самарали фойдаланиб жаҳон бозорида рақобатбардош озиқ-овқат маҳсулотлари ишлаб чиқариш ва уларнинг экспорт қилинишига муносиб шароитлар яратиш, озиқ-овқат маҳсулотлари экспорти ва импортини мутаносиблигини таъминлаш орқали дунё ҳамжамиятининг асосий муаммоларидан бирини ҳал қилишга ўз хиссамизни қўшишимиз керак бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони
2. Давлат Статистика қўмитаси маълумотлари
3. Президентимиз Ш.М.Мирзиёев 2017 йил 9 октябрдаги “Фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгаларининг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш, қишлоқ хўжалиги экин майдонларидан самарали фойдаланиш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПФ-5199-сон Фармони
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 4 мартдаги «2015-2019 йилларда ишлаб чиқаришни таркибий ўзгартириш, модернизация ва диверсификация қилишни таъминлаш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида»ги Фармони.

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2016-2020 йилларда хомашё базасини ривожлантириш, мева-сабзавот, гўшт-сут маҳсулотларини чуқур қайта ишлаш ҳамда озиқ-овқат маҳсулотларини ишлаб чиқариш ва экспорт ҳажмини ошириш чора-тадбирлари тўғрисидаги фармони.

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 16 январдаги “Мамлакатнинг озиқ-овқат хавфсизлигини янада таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5303-сонли фармони.

7. Давлат Статистика қўмитаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланди.